

AMIR XUDOYBERDI SHE'RIYATI LEKSIKASINING MAVZUVIY GURUHLARI

Tillayeva Malohat Normurot qizi

QarDU. Lingvistika (o‘zbek tili) yo‘nalishi magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15707149>

Annotatsiya. Maqolada Qashqadaryolik shoir Amir Xudoyberdi she’riyati leksikasi tahlilga tortilgan. Adib she’riyati leksikasi mavzuviy guruhlarga bo‘lib o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: Amir Xudoyberdi she’riyati leksikasi, mavzuviy guruhlar, tasnif, eskirgan so‘zlar, leksik guruhlar, so‘zlarning ma’no guruhlar.

Аннотация. В статье анализируется лексика поэта из Кашикадарьяи. Амира Худойберди Лексика поэзии поэта делится на тематические группы.

Ключевые слова: лексика поэзии Амира Худойберди, тематические группы, классификация, устаревшие слова, лексические группы, смысловые группы слов.

Abstract. The article analyzes the vocabulary of the poet from Kashkadarya. Amir Khudoyberdi The vocabulary of the poet’s is divided into thematic groups.

Key words: vocabulary of Amir Khudoyberdi’s poetry, thematic groups, classification, obsolete words, lexical groups, semantic groups of words.

Jamiyatda ro‘y beradigan o‘zgarishlar bevosita har bir mamlakatning madaniy hayotiga va tiliga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmay qo‘ymaydi. Tilimizda yangi-yangi terminlar, tushunchalar paydo bo‘lmoqda. Bu esa lug‘at boyligimizning boyishiga yanada yordam beradi. Tilimizdagi so‘zlarni tahlil qilish borasida ko‘pgina tilshunos olimlarimiz o‘z ilmiy izlanishlarini olib borganlar. Jumladan, bu borada tilshunos E.Begmatov bir qancha izlanishlar olib borganini ta’kidlab o‘tish joizdir. Olimning leksika borasidagi quyidagi fikrlari e’tiborga molikdir: “Leksikani sistematik hodisa sifatida o‘rganish bilan bog‘liq qiyinchiliklardan yana biri leksikaning tilning boshqa sohalariga nisbatan o‘zgaruvchanligidadir. Keltirilgan holatlar til va lug‘at sostavidagi lug‘aviy boylikni bor ko‘lami bilan aniqlash va tasavvur qilishga imkon bermaydi”¹. Tilshunos olim leksikani to‘laligicha o‘rgana olinmasligiga tilning o‘zgaruvchanligini asos qilib olgan. Ammo tilimizdagi so‘zlar miqdorini qisman tasavvur qilish usullari mavjud, deya E.Begmatov ularni olti usul orqali o‘rganishni tavsiya etadi. Ular quyidagilardir:

- so‘zlarni so‘z turkumlarga ajratish usuli, ya’ni so‘z turkumlari sistemasi;
- so‘zlarni yasalish modellariga ko‘ra tasnif qilish usuli, ya’ni so‘z yasash sistemasi;
- so‘zlarni funksional-stilistik guruhlarga ajratish usuli, ya’ni so‘zlarning stilistik-differensial guruhlari;
- so‘zlarni ma’lum mavzuviy (tematik) guruhlarga ajratish usuli, ya’ni so‘zlarning mavzuviy guruhlari;
- so‘zlarni tarixiy-funksional belgilariga ko‘ra tasnif qilish yo‘li, ya’ni so‘zlarni qo‘llanilishiga ko‘ra aktiv va passiv guruhlarga ajratish;
- so‘zlarni ma’nolari va ma’no munosabatlarga ko‘ra tasnif qilish usuli.

¹ Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. – Тошкент: Фан, 1985. – Б. 116.

Bu usul orqali so‘zlar bir ma’noli va ko‘p ma’noliga, omonim, sinonim, antonim, arxaizmlar, neologizmlar, istorizmlar va boshqalarga bo‘lib tadqiq etiladi. Tilshunosning bunday guruhlarni tasnif qilishi tilimizdagi so‘zlar miqdorini qisman bo‘lsa-da, tasavvur qilishimizga yordam beradi.

Lug‘at boyligimizdagi so‘zlarni belgilashda yana bir muhim omilga tayanib tasnif qilsa bo‘ladi, ya’ni tilimizdagi so‘zlar real borliqda nimani va qanday voqe-a-hodisani atab kelishiga ko‘ra ham tasniflash mumkin. Chunki tilimizdagi so‘zlar qo‘llanish doirasiga ko‘ra, ishlatish o‘rnii va vazifasiga ko‘ra o‘zaro bir-biriga aloqador bo‘lgan so‘zlarni atab keladi. Shunga ko‘ra ular bir umumiyl nom ostida birlashtirish mumkin. Masalan, daftar, kitob, ruchka, qalam – bularning hammasi “o‘quv qurollari” nomi ostida birlashtirsa bo‘ladi. So‘zlarni bunday guruhlarga ajratish orqali tilimizda paydo bo‘ladigan yangi so‘zlarni, yangi tushunchalar paydo bo‘lishi natijasida tilimizda iste’moldan chiqib ketayotgan so‘zlarni yoki qadimdan qo‘llanilganu, bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan so‘zlarni aniqlashimiz mumkin bo‘ladi. Tildagi so‘zlarni mana shu asosda tasnif qilish fanda mavzuviy guruh, mavzuviy qator kabi nomlar bilan ataladi. Bir narsani aytish joizki, bu terminni qo‘llash borasida hali tilshunoslar orasida mukammal va aniq bir to‘xtamga kelinmagan. Ba’zi olimlarimiz tematik (mavzuviy) guruh termini o‘rniga tematik qator yoki leksik guruhlar, so‘zlarning ma’no guruhlari kabi atamalardan foydalanganlar. Masalan, professor S.Usmonov o‘z ilmiy ishlarida bir o‘rinda semantik guruh, bir o‘rinda leksik gruppasi, so‘zlarning ma’no gruppalarini degan jumlalardan foydalangan.

So‘zlarni mavzuviy guruhlarga ajratishning yana bir qulay imkoniyati shundan iboratki, bunday guruhlar orqali muayyan xalqning qaysi sohalariga oid terminlar faol va boy ekanligini, qaysi sohaga doir so‘zlar nofaol va kambag‘alligini bilib olish mumkin. E.Begmatov “Hozirgi o‘zbek adabiy tilining leksik qatlamlari” nomli kitobida so‘zlarni bunday guruhlarga ajratilishi aynan bir yozuvchining ijodi bo‘yicha ham bo‘lishi mumkin degan fikrlarni keltirib o‘tadi va o‘zbek tilining o‘z qatlam leksikasini 29 ta mavzuviy guruh orqali tahlil qilish usulini keltirib o‘tadi.

Biz ham tilshunosning ilmiy fikr va tavsiyalariga asoslangan holda Qashqadaryolik shoir Amir Xudoyberdi she’rlarida qo‘llangan leksik birliklarni quyidagi mavzuviy guruhlarga bo‘lib o‘rganish maqsadga muvofiq deb topildi.

1. Inson va uning tana a’zolari nomlari ifodalovchi leksemalar. Badiiy asarlarda ma’lum bir shaxs (qahramon yoki qahramonlar) hayoti bilan bog‘liq vogelik o‘z aksini topadi. Shunday ekan har qanday ijodkor o‘z qahramonlarining portretini yaratishda, ularning turli xatti-harakatlarini chizishda, jismoniy-ruhiy holatlarini tasvirlashda inson a’zolari nomlariga murojaat qiladi. Ulardan maqsadga muvofiq tarzda foydalanadi. Biz bilamizki, inson murakkab anatomik tuzilishga ega. U ma’lum bir faoliyati davomida tana a’zolarini harakatga keltiradi. Ulardan ma’lum maqsadda foydalanadi. Shoir she’riy asarlarda o‘z qahramonining faoliyati yoki xatti-harakatlarini tasvirlar ekan uning tana a’zolaridan birini tasvir obyekti sifatida olishi tabiiy holdir. Shuning uchun ham Amir Xudoyberdi she’rlari matnida *qosh, soch, bosh, qo‘l, lab, badan, ko‘ks, kift, vujud, qiyg‘och qosh, qabog, tovon, til, kulgich, ko‘z, dudoq, qomat, kaft, yelka, bo‘g‘iz, yurak, siyna, yuz, yonoq, panja, bo‘yin, kiprik, teri, manglay, andom, quloq, og‘iz, qo‘ltiq, tish, barmoq, mo‘ylab, zulf, tana,*

bilak, qorin, qorachiq, suyak, miya, kalla, bel, mo'y, jigar, quloq parda, qorachiq, shoh tomir, iyak, kulgich, tana, соқол, xol kabi tana a'zolarini ifodalovchi so'zlardan keng foydalanadi.

Masalan,

*Belingizga yetay, deb tasmalar zor yig'laydi,
Qoshingizga yetay, deb o'smalar zor yig'laydi.*

*Shirmoyday yuzida kulgichi halim,
Nozu ishvasidan kuyadi tanam.*

Joduvash ko'zlar der: "Qulluq qil! Yalin!" (Begoyim)

2. Kiyim-kechak nomlarini bildiruvchi leksemalar.

O'zbek tili leksik qatlamlaridan birini kiyim-kechak nomlari tashkil qiladi, bu nomlar M.Asomiddinova tomonidan maxsus tadqiq etilgan². Bu leksik qatlamdan Amir Xudoyberdi ayrim qahramonlari portretini yaratish, davr ruhini berishda keng foydalanadi. Adib she'rlari tilida *qabo, ro'mol, chopon, yoqa, choriq, etak, etik, belbog', to'n, chodra/chodir, do'ppi, paytava, baxmal kamzul, parda, chimmat, hijob, sochvon* kabi so'zlardan foydalangan.

Bo'yingizga zor, yetay deb shoyi-atlas yig'laydi,

Baxmal kamzuldan o'pkalab qip-qizil las yig'laydi. (Begoyim)

3. Hayvonlar, hasharot nomlarini bildiruvchi birliklar. Hayvon, parrandalar azal-azaldan insoniyat bilan yonma-yon yashagan. Juda qadim zamonlardayoq insoniyat ulardan birinchi navbatda ozuqa manbai sifatida foydalanib kelgan bo'lsa, ikkinchidan hayvonlarning ma'lum qismi xonakilashtirilgan, chorvachilik xo'jaligi taraqqiy topgan. Ot, eshak, xachir singari hayvonlardan ishchi kuchi sifatida foydalanilgan. Qushlar va ayrim parrandalar ham qo'lga o'rgatilib parrandachilik tashkil topgan. Sayroqi qushlar qafaslarda saqlanib, ularning yoqimli xonishidan dam olish, rohatlanish, zavqlanish maqsadlarida foydalanilgan. Qushlar ov qilin manbai ham sanaladi. Shuning uchun ham dunyo adabiyotida hayvonlarga, parranda-darrandalarga bag'ishlangan alohida asarlar ham mavjud. She'riy asarlar tilida ham hayvonlar, hasharot, xillas, turli jonzotlar nomlari uchraydiki, ulardan ijodkorlar insoniyatning tabiat bilan, hayvonot dunyosi bilan bog'liqligini tasvirlashda foydalansplar, ikkinchidan ulardan ko'chma ma'no uchun foydalanishga harakat qiladilar. Bunday qo'llanishlar asar badiiyatini yanada kuchaytiradi, voqeа bayonini qiziqarli kechishini ta'minlaydi. Adib she'riyati tilida *it, eshak, qo'y, it, qo'zi, mushuk, echki, hisori qo'y, mol, ot, tozi, ho'kiz, serka, tulpor, nor, quyon, bo'ri, ohu, qashqir, yo'lbars, tulki, to'ng'iz, cho'chqa, kiyik, jayron, toshbaqa, bars, chiyabo'ri, shaqol, qora ilon, ilon, o'rgimchak, baliqcha, baliq, nahang, ari, zuluk, ajdaho, chayon, qurt, baqa, kit, qumursqa, chumoli, sichqon, parvona, pashsha, zambur, shilliq qurt, yo'lchivin, tipratikan, kapalak, bo'ta, eshak qurti, pat, yol, mor* kabi uy va yovvoyi hayvonlar, hayvonlarning tana qismlari, hasharotlar nomlari uchraydi.

Gar sherning og'zida bo'lsa nasibang

Qo'rmasdan yaqin bor, tortib ol, inson. (Gar sherning)

4. Qavm-qarindoshlikni ifodalovchi leksemalar. O'zbek tili leksik qatlamining katta qatlamin qavm-qarindoshlikka oid leksemalar tashkil etadi.

²Асомиддинова М. Кийим-кечак номлари. – Тошкент, Фан, 1981. – 134 б.

Qavm-qarindoshlikka oid leksemalarni ikki guruhgaga ajratish mumkin: Qonqarindoshlikni bildiruvchi leksemalar, nikoh qarindoshligini bildiruvchi leksemalar. Adib she'rlarida bu ikki qatlamga oid birliklar ham qo'llanganini kuzatish mumkin. Qonqarindoshlikni bildiruvchi leksemalar: *ota-ona, go'dak, qiz, yigit, ayol, bobo, momo, o'spirin, o'smir, chol, bola, uka, o'g'il-qiz, o'g'il, qari, nuroni, nabira, xola, kekca, singil*. Nikoh qarindoshligini bildiruvchi leksemalar: *xotin, yanga*.

5. Shaxslarni ifodalovchi leksik birliklar. Badiiy asarlar leksikasida shaxs (qahramonlar) nomlari bilan bog'liq leksemalar ham qo'llaniladiki, ularni alohida mavzuviy guruh sifatida o'rganish yaxshi samara berishi mumkin. Bu guruh leksemalarni o'zbek adabiy tilidagi shakllari bilan qiyosiy o'rganish uchun keng ma'lumotlar bera oladi. Bu esa badiiy matndagi leksiksemantik, uslubiy va grammatik o'ziga xosliklarni o'rganish uchun asos vazifasini o'taydi.

Amir Xudoyberdi asarlari tilida ham bu guruhgaga kiruvchi leksemalar soni anchagina.

Ularni qo'llanish darajasiga ko'ra quyidagi guruhlarga ajratib o'rganishni lozim topdik:

a) adabiy tilda faol qo'llanadigan leksemalar: *qashshoq, boy, yetim, tilamchi, mansabdar, soqov, dono, nokas, jo'ra, g'alamis, xudbin, safsataboz, mehmon, mezbon, o'g'ri, g'iybatchi, devona, kambag'al, firibgar, talaba, sozchi, ziyoli, oqsoqol, madhiyaboz, muxlis, yalmog'iz, dushman, hokim, kar, ko'r, olifta, bahodir, mast, begona, do'st, qarindosh, begona, kofir, musulmon, o'g'ri, qo'shni, oshna, zamondosh, merov*;

b) adabiy tilda kam uchraydigan shaxs nomlari: *malika, kaniz, shoh qizi, donishmand, avliyo, qul, darvesh, shoh, gado, faqir, so'fi, telba, tolib, taqvodor, sag'ir, to'ra, alloma, peshvo, kas, dohiy, poshsho, tojdor, eldosh, yor, yov, fuqaro, qondosh, soqiy, shahanshoh, qaroqchi, qozi, san'atfurush, qul, bek, noib, xoin*,

Men *malika*. Ko'hi Qof *shohin qizi*,

Ganjikim bisyor erur, men yolg'izi.

Atrofimdadur *kanizlar* doimo,

Qayga borsak qirqta bizlar doimo. (G'azal)

6. Kasb-hunar nomlarini bildiruvchi birliklar. Adib asarlari leksikasida kasb-hunarni ifodalovchi til birliklari ham keng qo'llanilgan: *jarroh, olim, hakim, shoir, doktor, aktyor, adabiyotshunos, dehqon, mirob, g'assol, go'rkov, ishbilarmon, me'mor, jallod, kafando'z, aravakash, mirshab, najor, hamshira, cho'pon, raqqosa, hajvchi, folbin, saroybon, sarbon, gulfurush*.

Hakim xo'rsindi,

Shoir egdi bosh.

Shifoxonada

Uzoq yotdi u. (Bemor shoir, do'stlari va tipratikan haqida hikoyat)

7. Din bilan bog'liq tushunchalarni bildiruvchi leksik birliklar. Amir Xudoyberdi g'azallarida din bilan bog'liq atamalar ko'plab uchraydi: *tangri, banda, tavfiq, sujud, iloh, murshid, pir, uvays, duo, qismat, zikr, taqvo, tasbeh, iyomon, uqubat, arsh, jannat, sirot ko'prigi, tilovat, ilohiy, nufosh, takbir, payg'ambar, do'zax, suluk, porso, rahnamo, kufir, zikr, tazarru, oyat, ibodat, so'fyi, masjid, namoz, rasul*.

Kech angladim: *tavfiq* nadir, *sujud* na,

Iloh nadir, *ruh* nimadir, *vujud* na?

Eshigingga it bikin bostim necha yil qovrulib,
Ushbu holimni ko‘rub *kofir, musulmon* yig‘ladi. (Sakkokiy g‘azaliga muxammas)

8. Mavhum tushuncha anglatuvchi leksik birliklar. Amir Xudoyberdi she’rlarida qo‘llanilgan mavhum otlar kattagina miqdorni tashkil qiladi. Shoir asarlarida qo‘llanilgan mavhum otlarni tuzilishiga ko‘ra tub so‘z va yasama so‘z shaklidagi leksik birliklarga ajratish mumkin.

Tub so‘z shaklidagi mavhum otlar: *firoq, azob, sarob, rutubat, quvonch-iztirob, his, tug‘yon, rohat, qayg‘u, g‘am, ko‘ngil, xayol, ofiyat, baxt, ishq, armon, qalb, ishonch, vafo, xiyonat, omad, inoyat, muhabbat, hasrat, erk, g‘am, nomus, or, sir, asror, umid, havas, ishq, dard, afg‘on, mung, halovat-huzur, umid, alam, shijoat, kuch, nafrat, g‘ov, ranj, alam, makr, riyo, zulm, tush*.

Yasama so‘z shaklidagi mavhum otlar: *borliq, go‘zallik, yoshlik, bolalik, ezgulik, quvonch, to‘siq, sinov, aldov, yoshlik, keksalik, yupanch, zo‘rlik, sevgi, tuyg‘u, shodlik*.

Muhabbatsiz umr – umrmi, azob

Zardobday silqiyur jon-jahoningdan.

Qalbingni soyaday izg‘igan sarob

Mahv etur – rutubat oqar qoningda. (Menga kerak emas...)

9. Kasallik, dori-darmonga doir leksemalar. Amir Xudoyberdi she’rlarida qo‘llanilgan kasallik, dori-darmon – tibbiyotga aloqador leksemalar anchagini: *sariq, sil, jarohat, taryok, giyoh, kasal, yara, sho‘rpaxta, palata, donor, osma, nina, qon, qizamiq, zaxm, isitma, yo‘tal, og‘riq, dard, yarador, sog‘lom, majruh*.

Ko‘kda so‘niq miltirar quyosh,

Chalingandek go‘yoki silga. (Nega buncha erta keldi kuz?)

10. O‘simlik, daraxt nomlari va ular bilan bog‘liq leksik birliklar. Adib asarlari tilida o‘simlik va daraxt nomlari ko‘plab uchraydi. Bu nomlarning ma’lum qismi metaforik shaklda qo‘llangan. Adib she’riyati tilida *qizg‘aldoq, tog‘ lolasi, boychechak, qo‘zigul, qoqi o‘t, namozshomgul, qyiq, rayhon, gul, tikan, qayin, chinor, ildiz, yaproq, maysa, g‘uncha, qamish, og‘och, baobab, paxta, chigit, novda, kurtak, bodom, o‘sma, sho‘ra, novda, kurtak, atirgul, gulbarg singari leksik birliklar qo‘llanilgan*.

Bog‘lar xarob, izlaydursan – chaman yo‘q,

Atirgul yo‘q, suluv sarvu suman yo‘q. (Bulbuljon)

11. Narsa-buyum nomlarini anglatuvchi leksik birliklar. Adib she’rlarida qo‘llanilgan bunday birliklarni ikkiga bo‘lib o‘rganish mumkin.

A) uy-ro‘zg‘or buyumlari nomlari: *oynak-taroq, ko‘zgu, kosa, kursi, karavot, sham, qafas, pichoq, chiroq, yostiq, bolish, charx, qulf, ketmon, tarozi, igna, tevona, hamyon, bolta, piyola, o‘roq, beshik, to‘shak, sandiq, pul sandiq, kalit, nina, arava, tovoq, qoshiq, jom, bolta, o‘tov, satil, egar, ko‘rpa, to‘shak, oyina, tesha, panjara, supurgi.*

B) narsa-buyum otlari: *kishan, g‘ul, zanjir, taxt, qalam, daftар, tilla soat, ohanrabo, halqa, soqol bo‘yoq, shisha, sham, qog‘oz, tayoq, qo‘ng‘iroq, cho‘ntak, suvrat, tobut, aso, qalam, qog‘oz, siyoh, dovot, mashina, tuvak, siyohdon, egar, g‘isht, qamchi, arg‘amchi, cho‘bchurg‘a, mayoq, po‘lat sim, samolyot, mashina, piyozqop, kema, yelkan, po‘lat sim.*

Ko‘zlarimiz ko‘rmas yo‘llarni.

Ufq bamisoli so‘nayotgan sham.

Hali mustabidlar *qamchisi*

Baquvvatdir, *cho ‘bchurg ‘asi* zulmdan. (Ufunat)

Amir Xudoyberdi “Ufunat” she’rida *qamchi*, *cho ‘bchurg ‘a* leksemalarini qo‘llagan.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati” da *qamchi* so‘zi quyidagicha izohlangan:

Qamchi 1 Ot-ulovni urib, yurishga undash, tezlatish uchun ishlatiladigan dastali, ko‘pincha qayish tasma shaklidagi asbob. *O‘rma qamchi. Ot o ‘ynatadigan uzun qamchi. Rais otiga qamchi urib, idora tomon ketdi.* Oydin, Yuragida o‘ti bor.

2 *ko ‘chma* O‘zi birikib kelgan so‘z anglatgan narsaning kaltagini bildiradi. *Shoir savdogarlarni ham satira qamchisi ostiga oldi.* Gazetadan. (O‘TIL, 5. – B. 234.)

Qamchi so‘zi o‘zbek tilida faol ishlatiladi. *Cho ‘bchurg ‘a* leksemasi “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da uchramadi. Alisher Navoiyning “Muhokamat-ul lug‘atayn” asarida “ .. qamchini agar “tozyona” derlar, ammo buldurgasin va cho‘bchurg‘asin turkcha ayturlar”³ tarzida qayd etiladi. Matndan tushunish mumkinki, *cho ‘bchurg ‘a* turkiy so‘z bo‘lib, qamchining qismlaridan birining nomi. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida *cho ‘bchurg ‘a* nofaol, tarixiy so‘z sifatida mavjud.

12. Osmon, samo bilan bog‘liq so‘zlar: *samo, yulduz, quyosh, falak, ko ‘k, osmon, burj, koinot, oy, o ‘n ikki burj, bulut, ostob,*

Hatto olis *yulduzlar* menga salom kelturdi,

Kezib yurgan bulutlar menga bo‘ldi fuqaro. (Faxriya)

13. Ta’lim, tarbiya bilan bog‘liq atamalar: *ustoz, shogird, ilm, xat, savod, imlo, insho, muallima, harf, hisob, raqam, ilm-urfon, hikmat, kitob, unvon, ijod, ilmu zako, ilmgoh, maktab, olim, dars, ma ’rifat, donish.*

Bir kun *ustoz ilm* bilan

Qattiq mashg‘ul bo‘lgan on,

Shogirdidan suv so‘rabdi,

Xayoli band, parishon. (Ulug‘ ustoz va badbaxt shogird haqida)

14. Taom, yegulik, ichimlik bilan bog‘liq leksik birliklar: *non, shirmon, palov, osh, devzira, qo ‘y eti, gazak, hisori qo ‘yning dumbasi, moy, ilik, jizza, don, boshqoq, qazi, bol, talqon, sabzi, tuz, handalak, yovg ‘on.*

Adib she’rlarida taom, oziq-ovqat mahsulotlari, ichimlikka doir so‘zlar ham uchraydi. Ularni quyidagi mitti guruhlarga ajratish mumkin.

Taom nomlarini anglatuvchi leksemalar: *palov, osh, qazi, yovg ‘on.*

Yegulik bilan bog‘liq leksik birliklar: *non, shirmon, devzira, qo ‘y eti, gazak, hisori qo ‘yning dumbasi, moy, ilik, jizza, don, go ‘sht, boshqoq, bol, talqon, sabzi, tuz, handalak.*

Ichimlik bilan bog‘liq leksik birliklar: *sharob, may, oq choy, choy, sharbat, sut, gulob, chog ‘ir.*

Murigan *sabzini oshga bosmoqlik*

Yaramas, lanjdur *osh – oshpaz* sirri fosh! (Oydin lahzalar)

Suyaksiz til jur‘ati boshga balodir, axir,

³ А.Навоий. Танланган асарлар. Мухокаматул луғатайн. III том. – Тошкент: Ўзбекистон давлат нашириёти, 1948. – Б. 186.

Davralarda avaylar og‘zidagi *talqonni*. (Havas qilsang)

15. Raqam, hisob so‘zlar: *ming, yetti, o‘n ikki, bitta, bir, yetmish ming, to‘rt, uch, ellik, uch-to‘rtta, o‘n, o‘n uch, sakson, yigirma ikki, ikki, yigirma, ming, yigirma besh, ming bitta, yetti, to‘qson ikki, yigirma, ikki yuz, o‘n to‘rt kun, bir qultum, bir siqim, bir tomchi, bir suruv, o‘n yil, o‘n sakkiz ming, qirq, bir tilik, milyon, yetmish ming, bir chimdim, qultum, lahza, dam, suruv, qo‘sh, gaz,*

Menga yuz yil tilama, ey do‘sst,

Bir kunning o‘tmog‘i qanchalar qiyin. (Menga yuz yil)

16. Vaqt, fasl tushunchasini ifodalaydigan leksik birliklar: *bu kun, kuz, sana, bahor, bugun, qish, ko‘klam, sahar, tong, tun, shom, saraton, mezon, bir pas, kunduz, yil, ayoz, erta.*

Ammo kuz payhon qilolmas bog‘i reshning,

Qish zahrin olay deb bahor tug‘ilibdur. (Tug‘ilibdur)

17. Harbiy terminlar, qurol-yarog‘ nomini bildiruvchi leksik birliklar: *bosh qo‘mondon, qo‘shin, sarkarda, nayza, shamshir, tank, to‘qmoq, xanjar, nayza, qilich, qinmiltiq, yarog‘, kamon, qalqon, dubulg‘a,sovut, askar, jang, sarboz, o‘q, cherik, sipoh, shahid, ayg‘oqchi.*

18. Badiiy janr va badiiy san’at bilan bog‘liq leksik birliklar: *she‘r, ash‘or, ertak, adabiyot, doston, qissa, g‘azal, bayt, qasida, cho‘pchak, afsona, asotir, lof, o‘lan.*

19. Maskan otlarini anglatuvchi leksik birliklar: *yurt, uy, vatan, bodomzor, gulbog‘, bozor, xiyobon, qishloq, zindon, kushxona, bank, janggoh, qulbozor, qamoq‘.*